**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| **Ro‘yhatga olindi** | **"TASDIQLAYMAN"** |
| **№** FD-02-01 | **SamISI rektori** |
| **“**29**”** 08 **2024 yil** | ______ **M.E. Po’latov** |
| | **«**29**»** 08 **2024 yil** |

**BIZNESDA BUXGALTERIYA HISOBI**

**O‘QUV DASTURI**

**Kunduzgi va kechki ta’lim shakli uchun**

**Bilim sohasi:** 400 000 -Biznes, boshqaruv va huquq;
**Ta’lim sohasi:** 410 000 - Biznes va boshqaruv;
**Ta’lim yo’nalishi:** 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha);
60411500 – Biznes tahlil.

**Samarqand – 2024**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul kodi** BizBH205 BBH205 | | **O'quv yili** 2024 - 2025 | **Semestr** 3 | **ECTS- Kreditlar** **5 ECTS** | |
| **Fan/modul turi** Majburiy | | **Ta'lim tili** O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari** 4 | |
| 1 | Fanning nomi | **Auditoriya mashg'ulotlari** (soat) | **Mustaqil ta'lim** **(soat)** | **Jami yuklama** (soat) |
| | Biznesda buxgalteriya hisobi | 60 | 90 | 150 |

2

**I.FANNING MAZMUNI**

"Binesda buxgalteriya hisobi" kursi fanining mazmun-mohiyatini, obyekt, subyekt, predmet, funksiya va vazifalarini, zamonaviy bozor tizimini rivojlantirishning zarurligi, biznesda buxgalteriyaning ahamiyati, biznes sub'ekti va uning strukturasi, biznesda buxgalteriya hisobi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi hamda xalqaro amaliyotda buxgalterlarning o'rnini va zaruriyati kabi boshlang'ich tushunchalarni ochib beradi.

Ushbu fan tarkibida biznesni tashkil etish, Biznesni tashkil etishning maqsadi va ahamiyati, biznes tuzilma va unda faoliyat yuritayotgan bo'limlarning roli, biznesda axborot texnologiyalar, biznes sub'ektlarining manfaatdor tomonlari, biznesda siyosiy, iqtisodiy omillar, biznesda ijtimoiy, ekologik va texnologik omillar, raqobat omillari, biznesda buxgalteriya hisobi va etika, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi huquqiy, me'yoriy hujjatlar, biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'rni va ahamiyati, g'aznachilik boshqaruv hisobi va funktsiyalari, moliyaviy hisob va moliya bo'limi fuktsiyalari, audit tushunchasi, turlari va nazorat, firibgarlikni aniqlash va oldini olish kabi mavzular o'rin olgan.

Fanning vazifasi - talabalarda xalqaro standartlar asosida Biznesda buxgalteriya hisobi fanida yuqorida qamrab olingan mavzular doirasida talabalar bilimini shakillantirish va ularni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Shuni alohida qayd etish kerakki, fan dasturi ACCA xalqaro tashkiloti talablarini qamrab olgan va qo'yilgan talablarga javob beradi.

**II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1.Mavzu. Biznesni tashkil etishning maqsadi va ahamiyati**

Biznes tashkilotlari va ularni tashkil etish ahamiyati. Biznes sub'ekt turlari. Biznes tashkilot tarmoqlari.

**2. Mavzu. Biznes tuzilma va unda faoliyat yuritayotgan bo'limlarning roli**

| | |
|---|---|
| | Tashkiliy tuzilma va turlari. Markazlashgan va markazlashtirilmagan. Strategiya darajalari. Biznes tashkilotidagi asosiy bo'limlarning roli va vazifalari.<br>**3. Mavzu. Biznesda axborot texnologiyalar**<br>Ma'lumot tushunchasi va xususiyatlari. Axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish o'rni va ahamiyati. Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobi uchun dasturlar to'plami. Buxgalteriya hisobi uchun "bulutli" havolalar. Katta ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va auditdagi ahamiyati. Blokcheyn texnologiyasi va uning hisob tizimidagi ahamiyati. Kiberxavfsizlik..<br><br>**4. Mavzu. Biznes sub'ektlarining manfaatdor tomonlari**<br>Biznesda manfaatdor tomonlar. Ichki va tashqi manfaatdor tomonlar va ularning o'zaro bog'liqligi. Manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ziddiyatlar.<br><br>**5. Mavzu. Biznesda siyosiy, iqtisodiy omillar**<br>Biznes yuritishda siyosiy omillar va PESTL tahlili. Biznesda iqtisodiy omillar. Ishsizlik. Inflyatsiya.<br><br>**6. Mavzu. Biznesda ijtimoiy, ekologik va texnologik omillar**<br>Biznesda ijtimoiy omillar. Biznesda ekologik omillar. Biznesda texnologik omillar.<br>**7. Mavzu. Raqobat omillari**<br>Raqobat tushunchasi. Porterning beshta kuch modeli. Porterning: qiymat zanjiri. Korporativ baholash (SWOT).<br><br>**8. Mavzu. Buxgalteriya hisobi va biznesdagi kasbiy etika**<br>Biznes etikasi va uning ahamiyati. Professional etika. Korporativ axloq kodeksi. Axloqiy tahdidlar va dilemmalar.<br><br>**9. Mavzu. Buxgalteriya hisobi va tartibga soluvchi huquqiy, me'yoriy hujjatlar**<br>Buxgalter kasbini tartibga soluvchi xalqaro va milliy huquqiy, me'yoriy hujjatlar. Xalqaro amaliyotda va mamalakatimizda kompaniyalar javobgar bo'lgan hokimiyat organlari. Moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar.<br><br>**10. Mavzu. Biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'rni va ahamiyati**<br>Biznesda buxgalteriya hisobi maqsad va vazifalari. Biznesni yuritishda soliq majburiyatlari. Tashqi va ichki moliyaviy ma'lumotlar. Buxgalteriya hisobining qo'l va kompyuter tizimlari. Ma'lumotlar ba'zalari va elektron jadvallar.<br>**11. G'aznachilik**<br>G'aznachilikning vazifalari. Aylanma mablag'larni boshqarish. |

Moliyalashtirishni baholash va jalb etish.

**12. Boshqaruv hisobi va funktsiyalari**

Boshqaruv hisobi tushunchasi. Boshqaruv hisobida xarajatlar jadvali. Byudjetlashtirish. Boshqaruv hisobi, biznes siyosati va faoliyat natijalari.

**13. Mavzu. Moliyaviy hisob va moliya bo'limi funktsiyalari**

Moliyaviy hisob haqida tushuncha. Xarid qilish bo'limi. Savdo tizimi. Ish haqi hisoblash tizimi. Naqd pul tizimi. Inventarizatsiya.

**14. Mavzu. Audit tushunchasi, turlari va nazorat**

Audit tushunchasi va turlari. Ichki nazorat tizimlari. Ichki nazorat muhiti va operatsiyalari. Nazoratda boshqaruv mas'uliyati.

**15. Mavzu. Firibgarlikni aniqlash va oldini olish**

Firibgarlik tushunchasi, turlari, uni oldini olish va bartaraf etish yo'llari. Bizness tashkilotlarda firibgarlik turlari. Firibgarlikning kompaniyaga oqibatlari. Firibgarlikning oldini olish va aniqlashda menejmentning vazifalari.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Biznesni tashkil etishning maqsad va ahamiyati;
2. Biznes tuzilma va unda faoliyat yuritayotgan bo'limlarning roli;
3. Biznesda axborot texnologiyalari;
4. Biznes sub'ektlarining manfaatdor tomonlari;
5. Biznesda siyosiy, iqtisodiy omillar;
6. Biznesda ijtimoiy, ekologik va texnologik omillar;
7. Raqobat omillari;
8. Buxgalteriya hisobi va biznesdagi kasbiy etika;
9. Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi huquqiy, me'yoriy hujjatlar;
10. Biznes sub'ektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'rni va ahamiyati;
11. G'aznachilik;
12. Boshqaruv hisobi va funktsiyalari;
13. Moliyaviy hisob tizimi va moliya bo'limi fuktsiyalari;
14. Audit tushunchasi, turlari va nazorat;
15. Firibgarlikni aniqlash va oldini olish.

**IV. MUSTAQIL TA'LIM**

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiledigan topshiriqlar:*

| | | |
|---|---|---|
| MT 1 | Biznesda komunikatsiya (Communicating in business) | 8 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | MT 2 | Biznesdagi tashkiliy madaniyat (Organisational culture in business); | 8 |
| | MT 3 | Norasmiy tashkilot va uning rasmiy tashkilot bilan aloqalari (The informal organisation and its relationship with the formal organisation); | 4 |
| | MT 4 | Biznesda boshqaruv va ijtimoiy javobgarlik (Governance and social responsibility in business); | 2 |
| | MT 5 | Ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillari. Ma'lumotlar xavfsizligi (The principles of data protection. Data security) | 4 |
| | MT 6 | Xodimlar huquqini himoya qilish (Employee protection) | 2 |
| | MT 7 | Ish joyida sog'lik va xavfsizlikni ta'minlash (Health and safety in the workplace) | 2 |
| | MT 8 | Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish | 2 |
| | MT 9 | Ishda o'qish va trening (Learning and training at work) | 2 |
| | MT 10 | Honey va Mumford: o'qitish uslublari (Honey and Mumford: learning styles) | 2 |
| | MT 11 | O'quv modellarini ishlatishning oqibatlari (Implications of the learning models) | 2 |
| | MT 12 | O'qitish va rivojlanish jarayonlari (The training and development process) | 2 |
| | MT 13 | O'quv jarayonida menejmentning roli (The role of management in the learning process) | 2 |
| | MT 14 | Shaxslar. Guruhlar. Jamoalar tushunchasi. | 4 |
| | MT 15 | Belbinning jamoaviy rollari nazariyasi. | 2 |
| | MT 16 | Takmanning guruhni rivojlantirish bosqichlari | 4 |
| | MT 17 | Shaxsiy ishlashni ko'rib chiqish va baholash (Review and appraisal of individual performance) | 4 |
| | MT 18 | Shaxslar va guruhlarni rag'batlantirish. Motivatsiya nazariyalari | 4 |
| | MT 19 | Ishdagi shaxsiy samaradorlik (Personal effectiveness at work) | 4 |
| | MT 20 | Mulkchilik va nazoratni taqsimlash (Separation of ownership and control); | 4 |
| | MT 21 | Xodimlarni ishga yollash va tanlash (Recruitment and selection of employees) | 4 |
| | MT 22 | Etakchilik, boshqaruv va nazorat (Leadership, management and supervision) | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | MT 23 | Mintzbergning tashkiliy tuzilma konfiguratsiyasi. | 4 |
| | MT 24 | Qonunda belgilangan majburiyatlarga buxgalter tomondan rioya qilmaslik oqibatlari | 2 |
| | MT 25 | Sun'iy intellekt (AI) | 2 |
| | MT 26 | Korporativ boshqaruv va ijtimoiy javobgarlik | 4 |
| | MT 27 | Qo'mitalar faoliyati | 2 |
| | | **Jami:** | **90** |
| | Talabalar mustaqil ishlar bo'yicha mavzularga doir ma'lumotlarni ingliz tilidan tarjima qilib slayd tayorlash, tezislar tayyorlash, testlarni va keys-studylarni echish va ularni taqdim etish tavsiya etiladi. | | |
| 3 | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakillanadigan kompetentsiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• Asosiy tushunchalarga **ega bo'lish;**<br>• tadbirkorlik tashkilotlari va ulaming manfaatdor tomonlari haqida dastlabki ma'lumotlarni bilishi;<br>• tadbirkorlik muhiti, makroiqtisodiy muhit, mikroiqtisodiy omillar haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>• biznesni tashkil etish, tuzilishi va strategiyasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish;<br>• Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobi uchun dasturlar to'plami;<br>• Nazorat, xavfsizlik va audit, firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ko'nikmaga ega bo'lishi, kerakli axborotlardan foydalanishni bilishi va **ulardan foydalana olishi lozim**;<br>• kasbiy odob-ahloq bo'yicha **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.** | | |
| 4 | **VI.Ta'lim texnologiyalariva metodlari:**<br>• Ma'ruzalar;<br>• Amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• İnterfaol keys stadilar;<br>• Blits so'rov;<br>• Guruhlarda ishlash;<br>• Taqdimotlarni qilish;<br>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. | | |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarni to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. | | |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar** | | |

| | |
|---|---|
| | 1. ACCA Business and Technology (BT) Study Text 2020-21. KAPLAN PUBLISHING<br>2. З.Б.Эшпулатова. Бизнесда бухгалтер (1-қисм). Ўқув-қўлланма. – Тошкент: TURON-NASHR. 2022 й. ISBN:978-9943-8732-9-2<br>3. Z.B.Eshpulatova. Biznesda buxgalter (2-qism). O'quv qo'llanma. – SamISI. 2023 y.<br>4. FIA - Foundations of Accounting in Business - FAB Study Text 2016.<br>5. З.Б.Эшпулатова., Д.Д.Пашаходжаева. Бухгалтер в сфере бизнеса. (1-часть). СамИСИ. 2023- 466 с<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. 3.04.2016 yildagi O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni;<br>2. 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori;<br>3. 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. |
| **7** | Fan dasturi O'quv–uslubiy Kengashning 2024 yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.(№_________) |
| **8** | Fan/ modul uchun mas'ul:<br>**Z.B.Eshpulatova** – SamISI "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti., PhD |
| **9** | **Taqrizchilar:**<br>**S.N.Tashnazarov**-SamISI, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi mudiri, professor., i.f.d.<br>**A.I.Aliqulov**- SamDVMChBU, "Iqtisodiyot" fakultet dekani., professor., i.f.d |